



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING ESSE YOZISH MALAKASI

Quvvatova Orasta Maribboy qizi

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti Filologiya
fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-bosqich talabasi

orastaquvvatova@gmail.com

Telefon nomer: +998904658727

Annotatsiya

Ushbu maqolada ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning esse yozish malakasini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari keng yoritilgan. Xorijiy tajribalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, psixolingvistik omillar hamda kreativ yondashuvlar asosida esse yozishga o'rgatishning samarali metodlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: esse, yozma nutq, kreativ fikrlash, psixolingvistika, kompetensiya, metodika, interfaol ta'lim.

Abstract

This article broadly covers the theoretical and practical foundations of developing students' essay writing skills in the process of native language education. Effective methods of teaching essay writing based on foreign experience, modern pedagogical technologies, psycholinguistic factors, and creative approaches are analyzed.

Keywords: essay, written speech, creative thinking, psycholinguistics, competence, methodology, interactive education.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Esse — bu har qanday mavzu yuzasidan muallifning shaxsiy munosabati, fikr va qarashlari to‘liq namoyon bo‘ladigan, erkin shakldagi kichik hajmli ijodiy matndir. U ko‘pincha bahs-munozaraga undaydi va muallifning dunyoqarashini ochib berishga xizmat qiladi. Buyuk ijodkorlarning yetuk asarlarga olib borgan ijodiy yo‘li ham dastlab oddiy qoralamalar va erkin fikr yozishdan boshlangan. Hozirgi kunga kelib esse insonning fikrlash darajasi, tahlil qilish qobiliyati hamda aqliy salohiyatini namoyon etishning samarali vositalaridan biri sifatida qaraladi. “Esse” atamasi fransuz tilidagi “essai” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “tajriba” degan ma’noni bildiradi. Ingliz tilida “essay”, “assay” shaklida qo‘llanilib, “urinish”, “ijodiy sinov” ma’nolarini anglatadi. Lotin tilidagi mazmuni esa “fikr yuritish”, “o‘ylash” tushunchalariga yaqin. Rus tilida “ocherk” sifatida ishlatiladi, o‘zbek tilida esa “qoralama” ma’nosiga mos keladi.

Esse — muayyan mavzu bo‘yicha muallifning shaxsiy fikrlariga asoslanib yoziladigan ixcham ijodiy ish hisoblanadi. Shu o‘rinda ko‘p hollarda esse va insho tushunchalari adashtiriladi. Aslida esa ular o‘rtasida ma’lum farqlar mavjud. “Insho” arabcha so‘z bo‘lib, “bino qilish”, “yaratish” degan ma’nolarni anglatadi. U adabiyot fanida o‘rganilgan bilimlarni o‘quvchining shaxsiy qarashlari bilan uyg‘unlashtirib yoziladigan ijodiy ish turidir. Insho yozish jarayonida badiiy asarni chuqur tahlil qilish, undagi obraz va g‘oyalarni ochib berish, fikrlarni badiiy ifoda orqali ta’sirchan yetkazish talab etiladi. Esse esa bunday qat’iy tahliliy talablar bilan cheklanmaydi, unda muallifning erkin fikrlashi va shaxsiy munosabati asosiy o‘rin tutadi.

Jahon tilshunosligida esse yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Esse va uning tuzulishi bo‘yicha dastlabki tadqiqotlarni ingliz tilshunosi R.R.Jordan o‘zining “Academic Writing Course” kitobida esse yozishda talab qilinadigan quyidagi ko‘nikmalarni sanab o‘tadi:

- Esseni rejalashtirish, qoralama yozish;



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

-
- Xulosa qilish shuningdek sintez qilish;
 - Tegishli ravishda tashkil etilgan ilmiy uslubda yozish;
 - Iqtiboslar, izohlardan foydalanish;
 - Ma'lumotlardan to'g'ri foydalangan holda dalillarni toppish va tahlil qilish.

Shuningdek Jordan bir qator aniq ilmiy tushunchalar, funksiyalarni sanab o'tadi: tasvirlash, misol keltirish, tasniflash, solishtirish, ifoda etish vahokazo. Jordanning ilmiy tadqiqotlarini ingliz tilshunosi Hyland davom ettirdi va u essening argumentli esse turiga to'xtalib uni uch bosqichga bo'ladi: tezis, argument va xulosa.

Esse erkin kompozisiya asosiga quriladigan, tuzilishi jihatdan inshoga qaraganda ixcham nasriy asar, badiiy-publisistik janrning bir turi hisoblanadi. Essening boshqa janrlardan ajratib turadigan muhim xususiyati shuki, esse muayyan reja asosida yozilmaydi.

Esse yozishdan asosiy maqsad insonni mustaqil va faol fikrlashga yo'naltirish, o'z qarashlarini dalillar asosida ifodalashga o'rgatish hamda til vositalaridan to'g'ri va samarali foydalanish orqali fikrni aniq yetkazish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Esse tuzilishi odatda uch qismdan tashkil topadi: muqaddima, asosiy qism va xulosa. Muqaddimada mavzuga kirish berilib, asosiy g'oya ilgari suriladi. Asosiy qismda fikrlar dalillar va mulohazalar orqali keng yoritiladi. Xulosa esa butun yozilgan fikrlarni umumlashtirib, yakuniy natijani ifodalaydi.

Essening markazida muallifning asosiy fikri yoki g'oyasi turadi. Bu g'oya "tezis" deb ataladi (yunoncha "thesis" – qoida, isbot ma'nosini bildiradi). Tezis muqaddimada aniq va tushunarli tarzda bayon qilinsa, asosiy qismda u dalillar bilan rivojlantiriladi, xulosada esa umumiy fikr sifatida yakunlanadi.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Esse turlari

a) Adabiy esse – eng murakkab turlardan biri bo‘lib, uning asosiy ko‘rinishlari mavjud:

- Tavsiflovchi esse – ma’lum asar yoki masalani tasvirlash va erkin tahlil qilishga asoslanadi.
- Mulohazali esse – voqea-hodisa yoki fikrga nisbatan muallif munosabati va xulosasi beriladi.
- Umumlashtiruvchi esse – bir masalaning turli talqinlari qiyoslanib, umumiy xulosa chiqariladi.
- Argumentli esse – muallif fikri boshidan aniq qo‘yilib, dalillar bilan asoslanadi.

b) Ijodiy esse – asar asosidagi taassurotlar orqali erkin fikr bildiriladi. Unda qahramonlar baholanadi, ijobiy va salbiy jihatlar ko‘rsatiladi, tahlil qilinadi va boshqa asarlar bilan qiyoslanishi mumkin.

Esseda eng katta e’tibor talab etadigan qism xulosada aks etadi. Muallif masalani qanchalik teran va mazmunli yoritib, har tomonlama tahlil qilsayu, xulosa muqaddima va asosiy qismning mazmunidan kelib chiqmasa, ko‘tarilgan mavzu o‘z ahamiyatini yo‘qotgandek tasavvur uyg‘otadi. Shuning uchun xulosada eng ahamiyatli fikrlar «qaymog‘i» bo‘lishi, dalillarga suyangan holda muallifning chiqargan qarori, muammoni yechishning optimal yo‘llari ko‘rsatilishi kerak. Demak, essening yakuniy qismida asosiy qismda berilgan muammoning yechimi tasdiqlanishi, mazmunning mohiyati ochib berilishi, ya’ni «Esse avvalida ko‘tarilgan masala bo‘yicha nima deyish mumkin?» degan savolga aniq va tushunarli javob yozilishi kerak.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi XTV. Ona tili fanidan DTS. – Toshkent, 2021.
2. Mahmudov N., Nurmonov A. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2018.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

-
3. G'ulomov A. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent, 2017.
 4. Abdullayeva Q. Nutq o'qitirish. – T.:O'qituvchi, 1980.
 5. B.R.Mengliyev, Z.T.Xolmonovna. “Tilshunoslik nazariyasi va metodikasi” bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: ,2016. – B.143
 - 6.A. G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. Toshkent. «O'qituvchi», 1992.